

**ABDULVAHOBXO`JA O`G`LI POSHSHOXO`JANING PEDAGOGIK  
QARASHLARIDA AXLOQIY TARBIYA MAZMUNINING YORITILILISHI**

**A.N. Nusratov**

*Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni  
qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy markazi dotsenti,  
pedagogika fanlari falsafa doktori*

**Annotasiya.** *Ushbu maqolada XVI asr Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy va axloqiy fikr rivoji haqida, shuningdek, o'sha davrning serqirra axloqshunos mutafakkirlaridan biri Abdulvahobxo`ja o`g`li Poshshoxo`janing pedagogik qarashlarida ma'naviy- axloqiy tarbiya masalasi yoritib berilgan. Ayniqsa, uning "Miftohul-adl va Gulzor" asarlari tarkibidagi shaxsning ma'naviy- axloqiy tarbiyasi muammolariga bag'ishlangan: "To`g`rilik boylik", "Laylak va ilon", "Xorun-ar-Rashid va telba Shayx", "Shayx va murid", "Luqmoni hakim" kabi hikoyatlar orqali komil insonni shakllantirish va insonlar xulq-atvorida bo'lishi lozim axloqiy sifatla to`g`risidagi qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axloq, Movarounnahr, miftohul-adl, gulzor, madrasa, mudarris, tafakkur, Buxoro xonligi, madaniyat, salohiyat, dunyoqarash.*

**Kirish.** Ma'naviy- axloqiy tarbiya masalasi o'zbek pedagogikasi tarixida uzluksiz o'rganilib, kelingan mavzulardan biridir. Axloq bu ijtimoiy ong shakllaridan biri shuningdek, ijtimoiy munosabatlar va shaxs hatti-harakatlarini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, hamma rioya qilishi zarur bo'lgan turli odob qoidalari insonlar o'rtasidagi muloqot va xulq-atvorning barcha mezonlarining bir butun mezonlarining majmuasi tushuniladi. Bizning yurtimizda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlar hamda olimlardan Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Boburmirzo, Ulug'bek va boshqa bir qator

olimlarimiz turli fan yo'nalishlarida ijod qilgan bo'lsada, inson axloq-odobi bilan bog'liq muammolar va ularning echimiga oid pedagogik g'olar dolzarb mavzu sifatida tadqiq etildi. Ushbu masalalar turli tarixiy boshqichlarga o'tib, yanada yorqinroq ranglarda pedagogik jihatdan ochib berildi.<sup>4</sup> XVI asr Movarounnahrda ijtimoi-siyosiy va axloqiy fikr rivoji haqida gapirilganda, mutafakkirlar dunyoqarashida ma'naviy-axloqiy kamolot masalasi va unda axloqiy tushuncha va qoidalar talqini xususida ijod etgan davr ilm-fan namoyandalari Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Muhammad Solih,

---

<sup>4</sup> Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) To'plovchi va mas'ul muxarrir: M.M. Xayrullaev T.: A. Kodiriy nomidagi xalk, merosi nashr., 2001.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

Majlisiy, Poshshoxoja, Maxdumi Azam, Xudodod Vali, Binoiy, Vosifiy, Haziniy, Mushfiqiy, Mutribiy asarlarida ilgari surilgan g'oyalar haqida to'xtalish mumkin.<sup>5</sup>

**Asosiy qism.** Poshshoxo`ja, jamiyatdagi barcha tabaqadagi shaxslarni ma'rifatli hamda yuksak axloqiy onga ega bo`lib umr o`qtqazishlari kerakligi to`g`risidagi qarashni ilgari surdi. Jumladan Poshshoxo`ja, o`z asarlari orqali ilgari surgan ta'limiy –axloqiy g'oyalarining markazida insonlar tabiatining zangi bo`lgan zulm va zuravonlikdan xalos qilishga urinish yotadi. Bunga misol sifatida muallif zolim va adolatsiz kayfiyatdagi, o`sha davr hukmdorlari hamda turli mansabdagi shaxslarni ayovsiz qoralab, o`z hikoyalari orqali, ularni axloq odobga chaqiradi. Poshshoxoja hukmdorlar, ularning a'yonlarini faqat o`z manfaati uchun emas aksincha jamiyatdagi fuqorolar manfaatlarini uchun jon kuyduruvchi, vatanparvar bo`lishlari lozimligini ta'kidlab, ularni shijoatli, ilmli, jasur, adolatsevar, mehribon, tadbirkor, dono, fahm-farosatli, soxovatli o`z fuqorolari g`ami bilan yashoydigan shaxs bo`lishi kerakligini, ta'kidlaydi. Uning fikricha hukmdorlar ham oddiy inson, ular ham xatolarga yo`l qo`yadi. Shuning uchun ularning ham tabiati ta'lim –tarbiyaga muhojdir. Ilm va odob sirlarini egallagan hukmdor va amaldorgina kishilarni baxtli-saodatli qiladi, adolatli qarorlar qichara oladi deydi. Poshshoxo`ja, hukmdorlar shaxsida eng avvalo ma'naviy- axloqiy tarbiyani shakllantirishni istaydi va bu qarashlarini bir qancha ibratli hikoyalarda ifodalaydi. Chunonchi “sulton Sanjar va to`g`ri daraxti bor kampir” nomli hikoyati bunga misol bo`la oladi. Ushbu hikoyatda muallif hukmdorlardan tortib oddiy fuqorolargacha insoniy munosabatlar zanjirining boshlanishi, rostlik, xalqsevarlik, adolat kabi uch asosiy axloqiy fazilatlar tizimi asosida qurilishi kerak deydi. Shuningdek odamlarni rozi qilib yashash ular bilan murosada bo`lib, mehr-muruvvat ko`rsatish orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

Poshshoxo`ja, hukmdorlarni adolat yuzasidan ish yuritishga va zulm yo`lidan yurmaslikka chaqiradi. Shuningdek, muallif ushbu hikoyatda to`g`rilik, rostgo`ylik, mehribonlik, saxovatpeshalik, halollik, xush-xulqlik, adolat, yaxshilik qilib yashash, rahm-shavqatli bo`lish kabi shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid fazilatlarga alohida urg`u beradi. Bu fazilatlarni shakllanishi uchun tarbiya jarayonidagi suhbat, hikoya, tushuntirish kabi tarbiya metodlaridan unumli foydalanib, kishining ma'naviy axloqiy tarbiyaga nisbatan ijtimoiy ongini shakllantirishga urinadi. Shuningdek “Miftohul -adl va Gulzor” asarlaridagi shaxsning ma'naviy- axloqiy tarbiyasi muammolariga bag`ishlangan: “To`g`rilik boylik”, “Laylak va ilon”, “Xorunar-Rashid va telba Shayx”, “Shayx va murid”, “Luqmoni hakim” kabi hikoyatlar orqali insonlar xulq-atvorida bo`lishi lozim bo`lgan bir qancha axloqiy meyorlar, axloqiy qadriyatlar hamda insonlar olamida barcha amal qilishi zarur bo`lgan, axloqiy tartiblar, odob shuningdek shaxslararo

---

<sup>5</sup> Saidqulov T.O`rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavxalar T.O`qituvchi, 1993.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

munosabatlar tizimidagi xulq-atvor qoidalari va mezonlari xususida hamda ustoz-shogird munosabatlaridagi axloqiy normalar haqida o'quvchilarni xabardor qiladi. Ushbu hikoyalar mazmuni va logikasiga ko'ra, muallif jamiyatda yashab, turgan har bir shaxsda u shoh, gado, miskin, ishchi, tijoratchi, shayx, olim yoki murid bo'lishidan qat'iy nazar u, o'zida axloq-odob va eng yaxshi insoniy fazilatlarini o'zlashtirib yashashi kerakligiga da'dat etiladi. Misol uchun asardagi "Shayx va murid" nomli hikoyatda Poshshoxo'ja, dono shayx va murid tilidan insonlarga murojaat qilib, shaxsda qanday qilib qalbni tarbiyalash va uni mo'tadilligini saqlab qolish, yo'llari xususida tarbiyaning suhbat, tushuntirish hamda tanbeh metodlaridan foydalanadi va ochib beradi. Misol uchun hikoyatda ko'ngil bir "hovuz" ga o'xshatilib unga besh ariqdan suv kelishi va shu ariqlardan "loyqa suv" (salbiy amal) kirishiga yo'l qo'ymaslik kerakligi, hamisha "toza suv" (yaxshi amal) bilan to'ldirish kerak, degan axloqiy qarash olg'a surilgan.

Poshshoxo'ja, o'z qarashlarida insonlarni yolg'onchilikdan qaytarib, oq ko'ngilli bo'lishga hamda doim, rost va adolat tarafida turib hayot kechirishga da'vat e'tadi. Uning fikricha halollik va rostlik axloqiy sifatlariga ega har qanday inson u ajr va mukofotlanishga loyiqdir unday sifatlarini o'ziga mujassamlagan insonlar alohida hurmat va e'zozlanishlari, ularni ma'naviy va moddiy mukofotlash zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu g'oyalarini muallif, "Sulton Sanjar" va "To'g'ri daraxti bor kampir", "To'g'rilik boylik" kabi hikoyatlari orqali ochib beradi. Muallif bu hikoyatlardagi qahramonlarni axloqiy ideallar sifatida keltiradi va bu orqali, turli tabaqadagi, o'z zamonasining riyokorlik, zulm va ilmsizlikka berilgan hamda yolg'onchi, firibgarlarlikni o'ziga kasb qilib olgan shaxslarni ijtimoiy ongini tarbiyalashni maqsad qiladi. Ularni ma'naviy buzuqlikdan qaytarishga harakat qiladi. Poshshoxo'ja insonlarda bir qancha yaxshi va yomon axloqiy sifatlarini hikoyalaridagi o'z qahramonlari orqali taqdim qilib, bunday sifatlar evaziga insonlardagi baxt va baxtsizlik oqibatlarini yuqori darajada gavlantirdi. Xoja asarlaridagi hikoyatlar o'zining uslubi va yoritilishiga ko'ra o'ta jozibador va mantiqiy xarakteridagi, kuchli ta'sirga ega sanalib, uning logikasi har qanday o'quvchini mustaqil fikrlashga majbur qiladi. Shaxsni o'zidagi mavjud ijobiy va salbiy bir qancha tarbiyaviy sifatlarini solishtirib ko'rishga majburlaydi.

**Xulosa.** Bir so'z bilan aytganda qisqa fursadda shaxsda o'z-o'zini anglash mexanizmini ishga solib, o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalash imkonini beradi. Poshshoxo'ja, hikoyalarida kishilardagi salbiy sifatlarini ko'zgu sifatida ko'rsatadi. Hikoyatlarda ishlatilgan axloqiy fikrlar o'zining asos va e'tibori bilan shaxsdagi turli axloqiy buzulishlarni, noto'g'ri shaxsiy qarashlarni, davolovchi ahamiyat ham kasb etgan. Misol uchun asarda turli mavzudagi hikoyatlar o'zida u yoki bu axloqiy muammoni chuqur tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu hikoyatlar orqali muallif tarbiyachi hamda o'qituvchi ro'lida gavdalanib, namuna ko'rsatish, mashq, talab, jazolash, rag'batlantirish, ishontirish, istiqbol kabi pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan mahorat bilan foydalangan. Miftohul-adl va Gulzorda yoritilgan hikoyalar har qanday

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

o'quvchi oldiga o'ylash va fikrlash uchun muammo va bir qancha savollar qo'yadi, bu esa shaxsda o'zidagi mavjud salbiy illatlarni yomon ko'rishga, aniqrog'i shaxs tafakkur jarayonidagi muhim operatsiyalardan bo'lgan, o'zini –o'zi analiz va sintez qilishga hamda o'z xulqiga nisbatan hukm va xulosa chiqarishga majburlashi bilan ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Saidqulov T.O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavxalar T.O'qituvchi,1993.
- 2.Rouzentel F.Torjestvo znaniya.M.:1978.
- 3.Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX ASR I YARMI). T. Fan, 2009.
4. Пошшахўжа. “ Мифтоҳ ул-адл ва Гулзор” -Т.: Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1962. й.
- 5.“Muzakkiri Ahbob” (“Do'stlar yodnomasi”) asari fors tilidan Ismoil Begjonov tarj.T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993
6. Zayniddin Mahmud Vosifiy Badoe'ul vaqoe' forsiydan Naim Norqulov tarj.G'afur G'ulom nomidagi Adbiyot va san'at, T.:1979.
- 7.Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) To'plovchi va mas'ul muxarrir: M.M. Xayrullaev T.: A. Kodiriy nomidagi xalk, merosi nashr., 2001.
- 8 “O'zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali.2005 yil.№4.
9. Valixujaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.,1993.
10. A.N.Nusratov, The socio-political life in the khanate of bukhara and the possibilities of usage “muzakkiri akhbab ” tractate in clarif ying development of pedagogical thought European Journal of Research and Reflection in Educational Sciencj. Vol.8.no 10,2020 part ii issn 2056-5852